

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIK TA‘LIM: XALQARO
TAJRIBA VA INNOVATSION
YONDASHUVLAR**

*mavzusidagi an‘anaviy ilmiy-amaliy anjuman
materiallari
(Buxoro, 2022-yil 6-aprel)*

Buxoro – 2022



Pedagogik ta'lim: xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar [Matn]: maqola va tezislar to'plami.

MAS'UL MUHARRIR:

Tosheva D.A. – f.f.f.d. (PhD)

TAQRIZCHILAR:

Saidova M.J. – p.f.f.d. (PhD), dots.

Tosheva N.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Saidova R.A. – f.f.f.d. (PhD)

Sobirova D.R. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Murodova G.A. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Ushbu an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanning ilmiy maqola va tezislari to'plamida ilm-fan va ta'lim tizimidagi keng ko'lamlı islohotlar, pedagogik ta'limda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, tadqiq etishga qaratilgan takliflarni qamrab oluvchi ilmiy, amaliy hamda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© **BuxDU PEDAGOGIKA INSTITUTI**



- ordasiga osilib turadigan yengsimon va uchlari mehrob shaklida chatilib, birlashgan yeriga tikiladigan maxsus taqinchoq, shokilda, bezak) [2. 307] Ulug' adib Chingiz Aytmatov "Hujum" kampaniyasi haqida so'zlab bunday degan edi: "Afsuski, davlat tomonidan o'tkazilgan "Hujum" kampaniyasining o'sha davrning og'ir xatoligi deyish kamlik qiladi. Bu insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi. Ustiga ustak ilohiy olam qurilmasiga qarshi yo'naltirilgan jinoyat edi. Xudoning barqarorligini inkor etgan murtadlar Xudoning vazifasini o'z zimmasiga oladilar va yangi o'yin yaratamiz deb dahshatli o'yin yaratadilar". [1.111] Chingiz Aytmatovning bu tarzda fikr bildirishiga onasi Naima Aytmatova nomi bilan bog'liq bo'lgan. Bu ayol o'sha paytlarda turli yuqori lavozimlarda ishlash bilan birga Qirg'izistonda paranji tashlash tadbirlarining faol targ'ibotchisi bo'lgan. "Hujum" kampaniyasi 1927-yil 8-martda ommaviy mitinglar boshlaydi. Ularda 10 mingga yaqin xotin-qiz paranjilarini gulxanda yoqdi. Bu harakat ayni 8-mart sanasida o'tkazilganligi sababli shu tarzda yozilgan.

O'zbek xalq maqollarining jilvadorligi va xilma-xilligi shu qadar keng va jozibadorki, ulardagi bir ma'no ikkinchi ma'noni to'ldirib keladi. Maqollarimiz xalqimizning ajoyib adabiy yodgorliklari hisoblanadi. Shuning uchun maqollarning keyingi avlodlarga o'z holicha yetib borishi uchun ularni izohlar bilan sharhlash, bir-biriga yaqin ma'noli maqollarni mavzuviy doirada qayta-qayta ishlab chiqish bizning asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov Ch. Qoyada qolgan ko'z yoshlar. T.: 1997-2-son. 111 b.
2. Ma'nolar mahzani. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2001-yil. 307 b.

ZAG'IZG'ON (PICA PICA BACTRIANA BP.) NING BIOLOGIYASIGA OID MA'LUMOTLAR

Doniyorov Boymurod Normurotovich

BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi



b.n.doniyorov13051984@mail.ru

Zag'izg'on o'troq qush bo'lib, uni mamlakatimizning barcha viloyatlarida, shu jumladan, Navoiy va Buxoro viloyatida ham yil davomida uchratish mumkin. Zag'izg'on odamlar orasida bir nechta nomlar (hakka, ola hakka, ola shaq-shaq, qushlarning pandasi) bilan mashhur. Zag'izg'onning boshi, bo'yni, ko'kraging oldingi qismi, tanasining orqa tomoni, dumu, tumshug'i va oyoqlari qora rangda, yelkasi, ko'kraging orqa qismi va qorni oq rangda, dumu esa uzun bo'ladi. Zag'izg'onning umumiy ko'rinishi quyida 1-rasmda tasvirlangan. Navoiy va Buxoro viloyatida zag'izg'onning uya qurishi, ko'payishi, rivojlanishi, umuman olganda barcha hayotiy jarayonlarini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjuddir. Masalan, uya qurishi uchun turli xil balandlikdagi daraxtlarning, xomashyoning mo'lligi, bolalarini boqishi uchun oziqaning serobligi, iqlimiy omillarning qulayligi va boshqalar.



1-rasm. Zag'izg'onning umumiy ko'rinishi

Zag'izg'onlarning juftlarga ajralishi bir holatda fevral oyining ikkinchi dekadasi to'g'ri kelsa, ikkinchi holatda dekabr-yanvar oylarida ham juft hosil qilgan zag'izg'onlarni uchratish mumkin. Bu holat bahorning erta kelishi, havo haroratining ko'tarilishi, o'sayotgan yosh nisbatidagi individning barqaror yosh



nisbatidagi individga o'zgarishi bilan izonlanadi. Quyida 2-rasmida juft hosil qilgan zag'izg'onlar tasvirlanadi.

2007-2022 yillar davomida Navoiy va Buxoro viloyatining muhim uchastkalarida, jumladan, Sarmishsoyda, Xatirchi tum., Navbahor tum., eski shahar, bog'lar va ko'kalamzorlar, shahardagi qabristonlarning atroflarida, suv havzalarining bo'ylarida, shahardagi turli ta'lim muassasalarining hovlisidagi va atrofidagi daraxtzorlarda hamda kasalxonalar atrofida kuzatish olib bordik.



2-rasm. Juft hosil qilgan zag'izg'on

Kuzatishlar natijasida zag'izg'onlarning 17-turdagi daraxtlarda uya qurganligini guvohi bo'ldik. Masalan, shumtol, chinor, tut, tuya archasi, gledichiya, virgen archasi, o'rik, zarang, gujum, oq terak, tol, olma, maklyura, qora qarag'ay, jiyda, bodom, gilos. Shundan eng ko'p uyalar shumtol (135), chinor (40), tut (16) daraxtlarida joylashgan. Uyaning qurilishida ikkala jins ham ishtirok etadi. Uyaning materiali asosan uya qurilayotgan daraxtning bir yillik quruq shohalari, yaqin atrofdagi daraxtlarning quruq shohalari, bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik o'simliklarning poyalari hamda tana qismlaridan, rangli simular, oq jangal va



loydan tashkil topadi. Ayrim uyalarda umuman loy ishlatilmasligini ham ko'rish mumkin. Bu holat uya qurilishining kech boshlanganligi, iqlimning quruq kelganligi bilan tushuntiriladi. Uyaning ichki qismini madaniy va yovvoyi o'simliklarning nafis ildizlari, hayvonlarning junlari bilan to'shaydi. Zag'izg'on uyalari quyida 3-rasmda tasvirlangan



3-rasm. Zag'izg'on uyalari

Uyaning ustki qismi (tom) ni tuxum qo'yishdan oldin qurigan daraxt shohlari, turli xil simlar, oq va qizil sho'ra poyalari hamda oq jangal bilan mustahkam bostiradi. Uyaning ustini bostirishi, uyadagi tuxumlarni kuchli issiqlikdan, yorug'likdan, insonlar va boshqa mexanik ta'sirlardan, daydi mushuk yoki tulkilardan muhofaza qilishi bilan aloqador bo'lishi mumkin. Ammo, uyaning yon tomonida kirib chiqish uchun tuyruk bo'ladi. Ba'zida usti (tom) ochiq uyalarni ham ko'rish mumkin. Bu holat uya qurilayotgan joyga bog'liq bo'lsa kerak. Uyaning (n=22) o'lchami: balandligi 26,0-68,0 (47,0) sm, eni 35,0-62,0 (43,0) sm, kosasining chuqurligi 12,0-18,0 (13,0) sm bo'ladi.

Uyalarda tuxumlar har kuni yoki kunora qo'yiladi. Uyalarda tuxumlarning soni 3-5 ta, ko'pincha 4 ta, ba'zan 6-7 ta bo'ladi. Tuxumlarning po'chog'i och ko'kintir bo'lib, qo'ng'ir-qoramtir xollari bor. Xollar poyanak qismida tig'iz bo'lib, uchki qismiga tomon siyraklashib boradi.

Tuxumlarini 2,5-3,0 hafta bosib, isitadi. Tuxumlarni isitishda urg'ochisi peshqadamlik qiladi. Zag'izg'onlar orasida jinsiy demorfizm ko'zga tashlanmaydi. Biroq, erkagi va urg'ochisini ajratishda laboratoriya usuli hamda gavdasining




kichikligi, rangining xiraligi, gavdasining ko'krak-qorin qismi pat va parlarining to'kilganligi kabi morfologik belgilarga asoslanib ajratish mumkin. Tuxumdan jo'ja chiqish arafasida tuxum massasi kamayadi, po'chog'i chatmaydi. Bu hodisa tuxum ichidagi individning perenatal davrdan postnatal davrga o'tayotganligi bilan aloqador bo'lsa kerak. So'ngra, tuxumlardan quloq teshigi yopiq, ko'zlari ojiz, tanasi patsiz, nimjon va zaif jish jo'jalar chiqadi. Tuxumlardan jo'jalar 2 kunda, odatda 1-kuni 3-4 tasi, 2-kuni qolganlari ochib chiqishadi. Buning sababini tuxumlar uyaga bir kunda qo'yilmaganligi bilan izohlash mumkin. Yangi ochib chiqqan jo'jalarning ($n=8$) og'irligi 6,3-9,8 gramm bo'ladi. Rivojlanishning 5-kuni quloq teshiklari, 6-kuni ko'zlari ochiladi. Jo'jalar bir haftalik bo'lganda pat va parlarning rivojlanganligini kuzatish mumkin. Jo'jalar 10-12 kunlik bo'lganda rangi to'qlashib, tashqi qiyofasi, hatti-harakati ota-onasiga o'xshab boradi. Tuxumdan jiqqan jo'jalar 27 kundan so'ng uyasidan uchib chiqadi. Zag'izg'onning ko'payish sikli quyidagi 4-rasmda keltirilgan



Tuxumlarning uyada joylashishi

Tuxumdan chiqqan 1 kunlik jish jo'jalar





5-6 kunlik jo'jalar va otalanmagan
tuxum

10-12 kunlik jo'jalar



Uyasidan uchub chiqqan bir oylik jo'ja Voyaga yetgan zag'izg'on

4-rasm. Zag'izg'onning ko'payish sikli

Qo'yilgan tuxumlardan to'liq jo'jalarning yorib chiqishi va sog'lom voyaga yetishi, uyaning eski yoki yangiligiga, tuzilishiga va ko'payish mavsumiga bog'liq.

Zag'izg'on, asosan zararkunanda hasharotlar va ularning lichinkalari bilan[1], bundan tashqari qish faslida o'laksalar bilan, har xil donli ekinlarning urug'lari, oziq-ovqat qoldiqlari, kemiruvchilar (uy va dala sichqonlari) va boshqa ozuqalar bilan oziqlanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zag'izg'onning zararidan ko'ra foydasi ko'proqdir. Jumladan, u zararkunanda hasharotlarni qirish bilan bir qatorda, tabiiy sanitarlik vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun, zag'izg'on va uning polaponlariga ziyon yetkazmaslik, uya qurilgan daraxtlarni kesmaslik va ularni buzmaslik kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богданов О. П. “Ўзбекистон ҳайвонлари”.- Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983. -Б.189-190.
2. Донниёров Б. Н. Мусича(*Streptopelia senegalensis Linnaeus*)нинг биологияси ва экологиясига доир маълумотлар (Бухоро вилояти мисолида)//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2015.№3.Б.49-52.
3. Донниёров Б. Н. Қушларнинг қишлоқ ва ўрмон хўжалигидаги ўрни//Орол денгизи минтақасида юзага келган экологик офатнинг атроф-табiiий муҳитга таъсири Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. -Бухоро, 2015.-Б.120-121.
4. Донниёров Б. Н. Ёввойи қоя кўк қаптарлари-хонақийлаштирилган қаптар зотларининг уруғбоши//Мақтабда биология.-Тошкент,2015.№1.-Б.22-23.
5. Донниёров Б. Н. Кўк қаптар(*Columba livia Gmelin*) биологиясига доир маълумотлар (Бухоро вилояти мисолида)//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2016.№2.Б.38-42.
6. Донниёров Б. Н. Бухорода учровчи қушларнинг шаҳардаги миллий-маданий ёдгорликларга таъсири//Бухоро давлат университети илмий ахбороти. - Бухоро, 2016. №4. Б. 42-46.
7. Донниёров Б. Н. Бухоро шаҳри шароитида уя қилувчи қушлар//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов. - Переяслав-Хмельницкий, 2016.№3.-С.10-18.
8. Донниёров Б. Н. Зағизгон (*Pica pica bactiana BP.*) нинг биологияси (Бухоро вилояти мисолида)//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов.-Переяслав-Хмельницкий, 2016.№4.-С.9-13.
9. Донниёров Б. Н. Чўл соғи (*Otus brucei*) нинг биологияси (Бухоро вилояти мисолида)//Вопросы охраны птиц Узбекистана материалы республиканской конференции общества охраны птиц Узбекистана.-Ташкент,2017.С.39-42.



10. Дониёров Б. Н. Бухоро шаҳридаги миллий-маданий ёдгорликларни экотуризм ресурслари сифатида шаҳарда учровчи қушларнинг таъсиридан сақлаш//Халқаро “Ипак ва зираворлар” халқаро туризм фестивали “Бухорода туристик эркин нақсодий ҳудудни яратиш имкониятлари ва ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги илмий-амалий конференция мақолалар тўплами.- Бухоро,2018.-Б.313-318.
11. Дониёров Б. Н. Туризм соҳасида аҳамиятли Бухоро вилояти агроценозларидаги манзарали ва сайроқи қушлар//«Ипак ва зираворлар» фестивали даврида 2018 йил 26 май кунини Бухоро шаҳрида «Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти» мавзусида ўтказилган халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами.-Бухоро,2018.-Б.169-173.
12. Дониёров Б. Н. Бухоро воҳасида қишлоқ қалдирғочи (*Hirundo rustica rustica* L.) нинг биологияси// Хоразм маъмун академияси ахборотномаси.-Хива, 2020.№1.Б.25-29.
13. Doniyorov B. N. Buxoro viloyatida ko'k kaptar (*Columba livia neglecta* Hume, 1873) ning biologiyasiga doir materiallar//Хоразм маъмун академияси ахборотномаси.-Хива, 2021.№8.Б.17-21.
14. Doniyorov B. N. Materials on the biology of *Streptopelia decaocto* Friv. 1838 In Bukhara region//ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 2, February 2021



технологияларнинг жорий этилиши таълим-тарбия жараёнини юксак савияда ривожланиши ва ўқувчиларнинг замон талабларига жавоб бера оладиган билим, кўникма ва малакалар билан шаклланишига улкан кўмак беради. Зеро, президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганларидек: “Бугунги ёш авлод эртага халққа айланади”. Демак у халққа айланар экан ўзбек халқи яна яшашда давом этади. Ўзбекистоннинг тақдирини эса мана шундай халққа айланган ёш авлодларнинг кўлида.

MUNDARIJA

I SHO‘BA.

TABIY VA GUMANITAR FANLAR TADQIQI MUAMMOLARI VA INNOVATSION G‘OYALAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Daminov M. I.	ZAMONAVIY TA‘LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	3
Xamidov O. X.	TA‘LIMDA XALQARO TAJIRIBALARDAN FOYDALANISH GERMANIYA TA‘LIM TIZIMI	5
Huseynova A. A.	XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR XUSUSIDA	8
Muxtorov E. M.		11
Raximov Sh. A.	LUG‘ATLAR – XALQ XAZINASI	13
Ikramov A. A.	DAVLAT TILIGA E‘TIBOR	15
Amonova Z.Q. Murodova G.	“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONING MATNIY XUSUSIYATLARI	18
Amonova Z. Q. Safarova Sh.	“QUR‘ONI KARIM” – BOQIRG‘ON HIKMATLARINING MANBASI SIFATIDA	27
Tosheva D.A.	MAQOLLARDA XALQ MILLIY QADRIYATLARINING AKS ETISHI	34
Murtozayev Sh. B.	GLOBALASHUV JARAYONIDA	43



Axtamov B.A.	MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH	
Muqimova G.R.	O'ZBEK BOLALAR FOLKLORIDA FITONIMLARNING KO'CHMA MA'NOLARI LINGVOPOETIKASI	47
Jamolova N.J. Botirova S.M. Alixonov F.H.	KREZOLNI VINILLASH JARAYONI KINETIKASI	50
Tag'oyeva D.N. Kurbanovna A.M.	YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD - UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI	54
Эргашева Д.К.	ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ РУССКОГО НАРОДА	59
Pulatoва M.T. Safarova M.A.	THE ANALYSIS OF MAIN CHARACTERS IN "ROMEO AND JULIET" BY WILLIAM SHAKESPEARE	62
Axtorova Z.R.	BIR G'AZAL SHARHI	67
Xudoyberdiyeva N. Tohirova B.	TEJAMKORLIK - O'ZBEK TILI GRAMMATIK QURILISHNING BOSH XUSUSIYATI	72
Elonova S.	ALISHER NAVOIY VA BOBUR	80
Bakayeva Sh.B. Nasimova H.L.	RESEDA - DORIVOR O'SIMLIK, YETISHTIRISH VA PARVARISH QILISH. XUSHBO'Y MIGNONETTE: URUG'LARDAN O'SADIGAN MIGNONETTE YETISHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH	84
Мустафоева Л.	УЗБЕК ВА РУС ХАЛҚ ПАРЕМАЛАРИДА ҚЎЛЛАНГАН "ГҮШТ" ЛЕКСЕМАСИНИНГ ҚНЁСИЙ ТАҲЛИЛИ	89
Doniyorov B.	BUXORO SHAHRI EKOTIZMLARIDA ODDIY MAYNA (ACRIDOTHERES TRISTIS LINNAEUS, 1766) NING UCHRASHI, KO'PAYISHI VA SONINI BOSHQARISH MASALALARI	93



Болтаева М.Ш.	ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА	101
Domiyorov B.	AVSTRALIYA – YER YUZIDAGI ENG KATTA QAMOQXONA	113
Mirxanova G.R. Maratova E.	MAQOLLARDAGI MA'NO JILVASI	117
Domiyorov B.	ZAG'IZG'ON (PICA PICA BACTRIANA BP.) NING BIOLOGIYASIGA OID MA'LUMOTLAR	120
Xaitov X. Jabborova A.	ILK O'ZBEK ROMANIDA KULGIGA ASOSLANGAN DIOLOGLARNING ESTETIK VAZIFASI	127
Maratova E.	ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDA TASVIRIYLIKNI KUCHAYTIRGAN OMILLAR	135
Ashurova D.	SEN MILLAT G'URURISAN, ONA TILIM!	138
Xudoyorova M.	INSON QADRINI ULUG'LASH VA FAOL MAHALLA YILI	141
Hasanova G.	"SADDI ISKANDARIY" DOSTONI - NAVOIY UJODINING KO'ZGUSI	144
Abdullayeva D.	O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKOYASI BADIY TAHLILI	148
Botirova R.	TIL – MILLATNING BOYLIGI	150
Xaitov X. Sharopova G.	XX ASR ADABIYOTIDA YANGI YO'NALISH – HANGOMALAR XUSUSIDA	154
Nurova F.	O'ZBEK TILIDA ANALITIK SHAKLLARNING IFODALANISHI	158
Шоднева Д. Ю.	РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	165
Vaxobova Sh.	"RISOLAI AZIZA" "SABOT UL-	171

